



TASDIQLAYMAN
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Sh. Shojidinov

2021 y.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti Til nazariyasi kafedrasida huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazining NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1.1. Til nazariyasi ilmiy-tadqiqot markazi (bundan keyin matnda "Markaz" deb ataladi) Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashi qarori asosida tashkil etilgan, o'z-o'zini boshqaradigan mustaqil Markaz bo'lib, o'z faoliyatini amaldagi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari, OO'MTV va universitet rektori buyruqlari hamda ushbu Nizom asosida olib boradi.

1.2. Markaz Til nazariyasi kafedrasida tashkil etiladi.

1.3. Markaz noyuridik shaxs maqomida bo'lib, universitetda ochilgan hisob raqam, dumaloq muhr, burchak shtampi hamda o'zbek va ingliz tillarida nomi ko'rsatilgan rasmiy ish qog'ozlariga ega bo'ladi.

1.4. Markaz bilan universitet o'rtasidagi moliyaviy masalalar universitet ichki qoidalariga ko'ra hal qilinadi.

1.5. Markazning pochta manzili – 100100, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, O'qituvchilar ko'chasi, 103.

II. Markazning boshqaruv asoslari va tizimi

2.1. Markaz universitet rektori tomonidan tasdiqlangan direktor tomonidan boshqariladi.

2.2. Markaz direktori o'z vakolatlari doirasida:

Markazda bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi;

Markazga malakali mutaxassislar, iqtidorli ilmiy tadqiqotchi va talabalarni jalb etadi;

O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijiy mamlakatlarda universitet nomidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan hamkorlik va xo'jalik shartnomalarini tuzadi;

ta'lim tizimini takomillashtirish borasida turli xalqaro va respublika miqyosidagi ko'rgazma, konferensiya, seminar va boshqa tadbirlarda ishtirok etadi;

xalqaro ta'lim va ilmiy muassasalari hamda turli jamoat tashkilotlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qiladi;

universitet Kengashi va rahbariyatiga takliflar bilan chiqadi;

Markaz faoliyati haqida matbuot va internet-saytlari orqali axborot tarqatadi;

Markaz faoliyatiga daxldor masalalar bo'yicha majlislar, konferensiyalar tashkillashtiradi;

ilm va ta'limga oid xalqaro tadbirlar tashkil qilish va o'tkazishda ishtirok etadi;

Markaz faoliyati doirasida qo'yilgan vazifalarni bajarish maqsadida vaqtinchalik mehnat jamoasi tuzadi, xorijiy mutaxassislarni shartnoma asosida ishga taklif qiladi;

iqtisodiyot turli sohalarining korxonalar va tashkilotlari, muassasalari xodimlari uchun pullik shartnoma asosida turli xizmatlarni bajaradi;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va mazkur Nizomga zid bo'lmagan boshqa faoliyatlarni amalga oshiradi.

2.3. Markaz universitet tasarrufidagi xonalar va texnik vositalardan foydalanish huquqiga ega.

2.4. Markazda turli siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy va diniy harakatlar faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

2.5. Markazda bo'limlar, sho'balalar, laboratoriyalar, kutubxona va boshqa ilmiy tadqiqotlar uchun kerakli ish joylari tashkil etilishi mumkin.

III. Markazning maqsadi va vazifalari

3.1. Markazning maqsadi:

zamon talablariga javob bera oladigan malakali, yuksak bilimli, ilm-fanni rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yuqori salohiyatli ilmiy-kasbiy mutaxassislar tayyorlashga yordamlashish, tadqiqotchilarning ilmiy kompetensiyasini shakllantirishga ko'maklashish.

3.2. Markazning asosiy vazifalari:

- yosh olim, doktorant va talabalarni Markazning ilmiy yo'nalishlarga jalb qilish;
 - O'zbek tilidagi matnlari sintezatori va ularni sinxron o'qish, lingvistik ekspertiza qilish metodikasini yaratish;
 - O'zbek (o'zbek va ona) tilining milliy ta'limi konsepsiyasini yaratish va shu asosda o'qitish metodikasini takomillashtirish;
 - Globallashtiruvning o'zbek tiliga ta'siri va jamiyatdagi rolini amaliy o'rganib sotsiolingvistik tadqiqotlar o'tkazish, zamon talabiga javob beruvchi qo'llanmalar yaratish;
 - O'zbek tili terminologik lug'atini yaratish;
 - Markaz hamda kafedrada ilm-fan va ishlab chiqarishning uyg'un mexanizmlarini shakllantirish va amaliyotda qo'llash orqali tijoratlashtirish masalalarini o'rganish, takliflar bildirish, interfaol usullar, pedagogik innovatsion hamda axborot kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda Markaz a'zolari tomonidan ilmiy faoliyatga bag'ishlangan master-klasslar tashkil etish;
 - Markaz hamda kafedra faoliyati uchun foydali mahalliy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish, markaz va kafedra bilan hamkorlik qilayotgan akademik litsey, umumta'lim maktablari o'quvchilarining bilimini oshirish, lingvistik, kommunikativ, nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga yordam berish
- ilmiy uslubni shakllantirishda til imkoniyatlaridan to'g'ri va unumli foydalanishda tadqiqotchilarga yo'l ko'rsatish

IV. Markaz va universitet o'rtasidagi o'zaro munosabatlar

4.1. Markaz majburiyatlari:

- tarmoq tashkilotlari bilan hamkorlik shartnomalari tuzish;
- tarmoq tashkilotlarida talabalar amaliyotini tashkil etish;
- tarmoq tashkilotlari bilan hamkorlikda har o'quv yili uchun chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;
- iqtisodiyot turli sohalarining korxonalar va tashkilotlari, muassasalari bilan xo'jalik shartnomalari tuzish;
- tarmoq tashkilotlarida talabalarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan aniq choralar ko'rish;
- kafedra pedagog-xodimlariga tarmoq tashkilotlarda amaliy tadqiqotlar uchun zarur sharoit yaratish;
- Markaz xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy muhofaza qilish;
- tadqiqot uchun zarur o'quv, uslubiy va moddiy-texnika bazasini tashkil etish;

o'qitish va malaka oshirish yo'nalishlari bo'yicha zarur axborot-ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqishni va ularni joriy etishni tashkil etish.

4.2. Universitet majburiyatlari:

Markaz faoliyatini kafedra ilmiy faoliyat ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish;

Markazni o'quv, laboratoriya va boshqa maddiy-texnik vositalari bilan ta'minlash;

Markazning o'ziga daromad topishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

Markazga tarmoq tashkilotlari muammolarining ilmiy yechimiga yo'naltirilgan ilmiy ishlar dasturini shakllantirishda ko'mak berish.

V. Markazning moddiy-texnik ta'minoti

5.1. Markazning moliya-xo'jalik faoliyati:

xo'jalik faoliyati va shartnoma asosida ko'rsatilgan xizmatlardan tushgan tushumlar;

mahalliy va xalqaro tashkilotlar grantlari mablag'lari;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari, xalqaro tashkilotlarning homiylik mablag'lari hisobiga shakllantiriladi.

5.2. Markaz turli davlat va jamoat tashkilotlari, tijorat tizimlari va korxonalar, shu jumladan, chet el firmalari bilan o'z faoliyati doirasida xo'jalik shartnomalari tuzishi mumkin.

VI. Markazning xalqaro faoliyati

6.1. Markaz xodimlarning malakasini oshirish, chet ellarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, o'zaro tajriba almashish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish huquqiga egadir.

VII. Yakuniy qoidalar

7.1. Markazni tugatish yoki qayta tashkil etish universitet Kengashi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7.2. Markaz Nizomi universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi